



JIZZAX VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar-avgust





CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1-avgust holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **8105** tani tashkil etib, Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **104** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **8001** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



O'sish sur'ati

Tarkibiy qism



Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-avgust oyida chakana savdo tovar aylanmasi **5109,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **105,7** % ni tashkil etdi

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **365,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **130,5** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **4743,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **104,2** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1312,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **102,5** %) tashkil etdi.


	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-avgust oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-avgust oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-avgust oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	5109,0	105,7	365,6	130,5	4743,4	104,2
Jizzax sh	1165,7	104,0	135,6	89,9	1030,1	106,1
<i>tumanlar :</i>	-	-	-	-	-	-
Arnasoy	115,0	77,7	1,2	79,1	113,8	77,7
Baxmal	550,1	106,5	2,7	98,7	547,4	106,5
G'allaorol	522,3	109,2	18,6	102,1	503,7	109,5
Sh Rashidov	597,1	101,5	5,9	130,5	591,2	101,2
Do'stlik	233,3	103,8	1,4	24,6	231,9	106,0
Zomin	600,5	105,4	98,2	117,4	502,3	103,3
Zarbdor	288,9	103,5	1,4	87,4	287,5	103,6
Mirzacho'l	188,8	104,7	1,0	82,8	187,8	104,8
Zafarobod	118,2	102,8	1,1	74,4	117,1	103,1
Paxtakor	391,9	134,9	96,4	15,6 m.	295,5	103,9
Forish	265,1	105,3	1,4	91,2	263,7	105,4
Yangiobod	72,1	103,4	0,7	76,2	71,4	103,7

2023- yilning yanvar-avgust oyida 2022-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan viloyatning Paxtakor (**134,9** %), G'allaorol (**109,2** %), Baxmal (**106,5** %) va Zomin (**105,4** %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **4743,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022–yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **104,2 %** ni tashkil etdi. Jizzax viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,8 %** ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **30,5 %** ga o'sdi va **365,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,2 %** ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Mirzacho'l (**99,5 %**), Zarbdor (**99,5 %**) va Forish (**99,5 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **7,2 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Paxtakor (**24,6 %**), Zomin (**16,4 %**) va Jizzax shahri (**11,6%**) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Jizzax viloyati	3444,4	103,4
Jizzax sh	6037,7	101,2
<i>tumanlar :</i>		
Arnasoy	2385,2	76,6
Baxmal	3284,4	104,2
G'allaorol	2841,5	106,9
Sh Rashidov	2506,6	98,9
Do'stlik	3376,3	102
Zomin	3408,2	103
Zarbdor	3102,8	101,1
Mirzacho'l	3451,1	102,8
Zafarobod	2233,9	100,6
Paxtakor	4916,8	131,9
Forish	2724,7	103,6
Yangiobod	2443,7	102


2023-yilning yanvar-avgust holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 444,4** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **103,4** %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni tumanlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Jizzax shahri (**6 037,7** ming. so'm), Paxtakor (**4 916,8** ming. so'm) va Mirzacho'l (**3 451,1** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Jizzax viloyati bo'yicha 2023-yilning yanvar-avgust oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 312,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **102,5 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor(dehqon) va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **615,9** mlrd. so'mni (**102,8%**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **696,5** mlrd so'mni tashkil etdi (**67,7 %**).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI


Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



— Dehqon bozorlari

— Chorva bozorlari



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-avgust oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-avgust oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-avgust oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	1312,4	102,5	615,9	102,8	696,5	67,7
Jizzax sh	260,2	106,8	260,2	141,7		-
<i>tumanlar :</i>						
Arnasoy	1,2	3,3	1,2	21,4		-
Baxmal	208,2	104	115,2	89,8	93,0	82,3
G'allaorol	159,8	115,9	51,2	111,3	108,6	62,1
Sh Rashidov	122,7	93,2	-	-	122,7	119,0
Do'stlik	65,5	112,8	15,1	47,8	50,4	55,4
Zomin	181,4	107	81,1	101,5	100,3	74,7
Zarbdor	105,1	98,4	28,6	45,5	76,5	58,4
Mirzacho'l	53,8	107,5	12,3	94,6	41,5	61,8
Zafarobod	-	-	-	-	-	-
Paxtakor	73,3	102,2	26,5	72,2	46,8	56,5
Forish	59,5	112,1	21,8	234,4	37,7	61,0
Yangiobod	21,7	108,3	2,7	117,4	19,0	84,4

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;











– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning avgust oyida viloyatning barcha tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **87,0** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**29,7** mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mlrd. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	29,7
	Non va non mahsulotlari	13,0
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	8,2
	Tovuq go'shti	4,4
	Qurilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	3,1
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	3,2
	Tuxum	5,2
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak	10,6
	Ziravorlar	5,3
	Tuzlamalar	0,5
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	0,2
	Nooziq-ovqat tovarlari	3,0

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023-yilning avgust oyida, viloyatning barcha tumanlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **67,7** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **45,1** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – **21,1** mlrd. so‘mni, otlar – **1,3** mlrd. so‘mni, parrandalar – **0,3** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrd. so‘m
	2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	24,4
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	11,2
	1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar	9,5
	Qo‘ylar	17,9
	Otlar	1,3
	Echkilar	3,2
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	0,2
	Tovuqlar	0,1
	Quyionlar	0,0
	Qushlar	0,0

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI




2023- yilning yanvar-avgust oyida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **185,1** mlrd. soʻmga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **106,8** % ni tashkil qildi. Bunda savdo aylanmasining **97,3** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri keldi.

	Jami mlrd. soʻm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. soʻm	2022- yil yanvar-avgust oyiga nisbatan, foizda	Xususiy tadbirkorlik subyektlari, mlrd. soʻm	2022- yil yanvar-avgust oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	185,1	106,8	180,0	106,9	5,1	103,8
Jizzax sh	71,9	104,7	70,9	104,7	1,0	103,9
<i>tumanlar :</i>	0,0		0,0		0,0	
Arnasoy	0,7	105,3	0,5	106,9	0,2	100,8
Baxmal	10,7	105,5	10,2	105,8	0,5	100
Gʻallaorol	13,8	114,2	13,3	114,6	0,5	103,3
Sh Rashidov	43,9	109,5	43,2	109,6	0,7	104,2
Doʻstlik	4,4	111,3	4,1	111,7	0,3	105,6
Zomin	12,2	105,3	11,7	105,3	0,5	106,6
Zarbdor	6,4	106,8	6,1	106,9	0,3	105,6
Mirzachoʻl	1,9	102,8	1,7	102,1	0,2	108,1
Zafarobod	1,5	97	1,3	96,5	0,2	100,5
Paxtakor	6,2	103,8	5,9	103,7	0,3	105,4
Forish	9,8	108,7	9,5	108,9	0,3	100,7
Yangiobod	1,7	96,6	1,6	96,2	0,1	105,3

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1-iyul holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **3 837,0** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **132,6 %** ni tashkil etdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **1 039,0** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **114,2 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi **2 798,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **141,1 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Jizzax viloyati	3837,0	100,0
Jizzax sh	742,8	19,3
<i>tumanlar :</i>		
Arnasoy	2,2	0,1
Baxmal	1772,5	46,2
G'allaorol	95,3	2,5
Sh Rashidov	979,1	25,5
Do'stlik	2,0	0,1
Zomin	226,1	5,9
Zarbdor	0,0	0,0
Mirzacho'l	0,1	0,0
Zafarobod	0,0	0,0
Paxtakor	0,7	0,0
Forish	13,4	0,3
Yangiobod	2,8	0,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Baxmal tumani (**1 772,5** mlrd. so'm), Sh.Rashidov tumani (**979,1** mlrd. so'm) va Jizzax shahri (**742,8** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-avgust oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2 085,7** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **103,1** % ni tashkil etdi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **1911,7** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **113,4** % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **91,7** % ni tashkil qildi.


ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK



2023-yilning yanvar-avgust oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2085,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **103,1** % ni tashkil etdi

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **174,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **51,5** %), kichik biznes va mikrofirmalarining tovar aylanmasi **1911,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **113,4** %) tashkil etdi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-avgust oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-avgust oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-avgust oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	2085,7	103,1	174,0	51,5	1911,7	113,4
Jizzax sh	1205,5	113,8	57,2	49,9	1148,3	121,6
<i>tumanlar :</i>						
Arnasoy	6,1	97,2	0,0	103,3	6,1	97,2
Baxmal	108,3	78	104,0	97,2	4,3	13,5
G'allaorol	33,2	111,7	0,2	109,9	33,0	111,7
Sh Rashidov	200,7	103,4	0,2	59,4	200,5	103,5
Do'stlik	64,5	54,6	11,7	16,7	52,8	110,2
Zomin	300,8	109,1	0,0	59,9	300,8	109,1
Zarbdor	79,8	107,5	0,0	76,7	79,8	107,5
Mirzacho'l	42,9	108,5	0,1	119,8	42,8	108,4
Zafarobod	15,5	111,1	0,1	365,4	15,4	110,8
Paxtakor	7,2	13,7	0,2	0,5	7,0	93
Forish	14,2	99,9	0,2	69,2	14,0	100,6
Yangiobod	7,0	95,9	0,1	202,1	6,9	95,5



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 72-221-51-26**